

MUSTAQILLIK YILLARIDA TAYYORLANGAN MILLIY MEDIA MAHSULOTLARining YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI.

THE ROLE OF NATIONAL MEDIA PRODUCTS CREATED DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE IN THE UPBRINGING OF YOUTH.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ МЕДИАПРОДУКТОВ, СОЗДАННЫХ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ, В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ.

Akramov G'iyosiddin Najmiddin o'g'li

"University of Business and Science" "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi.

giyosiddinakramov22@gmail.com

Tel: +998949072766

Mamadaliyeva Ra'noxon Abdurahmon qizi

"University of Business and Science" "Pedagogika va axborot texnologiyalari" fakulteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi.

mmadinabonu166@gmail.com

Tel: +998 88 222 75 71

Annotatsiya.

Mazkur maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng yaratilgan milliy media mahsulotlarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida ishlab chiqilgan filmlar, teledasturlar, multfilmlar, hujjatli filmlar va internet orqali tarqalgan milliy ruhdagi kontentlar yosh avlod ongida vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, ma'naviyat va ma'rifat kabi muhim tushunchalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda bu media mahsulotlarining tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyati va ularning yoshlar ongiga ko'rsatgan ijobiy ta'siri yoritiladi.

Abstract.

This article analyzes the impact of national media products created after Uzbekistan gained independence on the upbringing of youth. Films, television programs, animated cartoons, documentaries, and nationally inspired content disseminated via the internet during the years of independence play a crucial role in shaping important concepts such as patriotism, national values, spirituality, and enlightenment in the minds of the younger generation. The study highlights the educational significance, thematic content, and the positive influence of these media products on the consciousness of youth.

Аннотация.

В данной статье анализируется влияние национальных медиапродуктов, созданных после обретения независимости Узбекистаном, на воспитание молодежи. Фильмы, телепередачи, мультфильмы, документальные фильмы и контент национального духа, распространяемый через интернет в годы независимости, играют важную роль в формировании у молодого поколения таких важных понятий, как патриотизм, национальные ценности, духовность и просвещённость. В исследовании освещается воспитательное значение этих медиапродуктов, их содержание и положительное влияние на сознание молодежи.

Kalit so'zlar.

milliylik, milliy qadriyat, milliy media, o'sib kelayotgan kelajak avlod, yoshlar tarbiyasi, OAV, animatsion texnologiyalar, kontent.

Keywords.

National identity, national values, national media, the younger generation, upbringing of youth, mass media, animation technologies, content.

Ключевые слова.

Национальная самобытность, национальные ценности, национальные медиа, подрастающее поколение, воспитание молодежи, средства массовой информации (СМИ), анимационные технологии, контент.

Zamonaviy jamiyatda bolalarni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari, xususan, milliy media mahsulotlarining o'рни beqiyosdir. Bolalar yoshida shakllanadigan dunyoqarash, axloqiy mezonlar, qadriyatlar va ijtimoiy ko'nikmalar ko'p jihatdan ular iste'mol qilayotgan axborot va ko'rgan media kontentlariga bog'liq. Shu sababli, ayniqsa mustaqillik yillarida yaratilgan milliy animatsion filmlar, bolalar uchun mo'ljallangan ko'rsatuvlar va onlayn dasturlar ularning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishida muhim vositaga aylandi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, axborot makonida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, milliy media mahsulotlarining shakllanishi va rivojlanishi jarayoni boshlangan bo'lib, ular yosh avlodning tarbiyasida muhim omil sifatida qaralayapti. Bugungi kunda axborot vositalari nafaqat xabardor qilish, balki yoshlar ongiga ma'naviy, mafkuraviy va estetik qadriyatlarni singdirish vositasi sifatida faol ishlatilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar forumida so'zlagan nutqida "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur"[1]—deya ta'kidlagan edilar.

Milliy tarbiya – bu xalqning tarixiy tajribasi, ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlar, diniy e'tiqodi va madaniy merosi asosida shakllangan, avloddan avlodga o'tib kelayotgan tarbiyaviy tizimdir. U yosh avlodni milliy ruhda, vatanparvarlik, o'zlikni anglash, o'z tiliga, diniga, millatiga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Bugungi globallashuv va raqamli axborotlashuv davrida milliy tarbiyaning o'рни yanada ortmoqda. Chunki yoshlar zamonaviy texnologiyalar orqali har xil madaniyat, mafkura va axborot oqimlariga duch kelmoqda. Shu bois, ularning ongini mustahkamlash, o'zligini anglash va milliy qadriyatlarga asoslangan immunitetni shakllantirish zarur bo'lib qolmoqda.[2]

Ommaviy axborot vositalari odatda ma'lum vaqtda katta va turli-tuman aholi qatlamiga axborot tarqatish vositasi sifatida qaraladi. Aloqa vositalari turli xil bo'lib, televizor va radio kabi uy elektronikalaridan tortib, gazeta, jurnallar va boshqa bosma ommaviy axborot vositalarigacha boradi. Telefonlar, internet va elektron pochta, faks kabi ofis va mobil uskuna ham aloqa vositalariga kiradi. Ushbu tadqiqot bolalar tarbiyasiga ommaviy axborot vositalarining ta'siriga bag'ishlanganligi sababli, bolalar ko'proq vaqt ajratadigan televizion dasturlarga ko'proq e'tibor qaratadi, chunki ular boshqa aloqa vositalariga qaraganda televizorga osonroq kirish imkoniga ega.

Ommaviy axborot vositalari (gazetalar, jurnallar, multfilmlar, radio, video o'yinlar, filmlar va ayniqsa, televizor kabi) boshqa ijtimoiylashuv shakllaridan tubdan farq qiladi, chunki ular o'zaro muloqot imkonini bermaydi. Televizor juda yosh bolalarga ta'sir ko'rsatadi va ularning kognitiv hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Televizor yosh bolalarga eng kuchli ijtimoiylashuv ta'sirini ko'rsatadigan vositadir va boshqa barcha media vositalaridan ancha ustundir. Televizorning interaktiv emasligi yosh bolalarning rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Tomosha qilayotgan paytda bolalar o'zlarini muloqot qilayotgandek his qilishadi, lekin ular aslida shunday emas. O'rtacha bola kuniga 3–4 soat televizor ko'radi, bu esa boshqalar bilan o'ynash va ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganish uchun qolgan vaqtni keskin kamaytiradi.[3]

Dunyoda hech narsa bolalardek qadrlil emas. “Tarbiyalash” degan nom ostida biz kamchilik, nuqsonlar bilan to'ldirib tashlaymiz, bir umr o'sha kamchiliklarni tanqid qilib o'tamiz. Har bir millatning borligi uning kelajagini ta'minlovchi muhim omil – bolalardir. O'sib kelayotgan yosh avlod millatning g'ururi, sha'niyu shavkati deb bot-bot takrorlaymiz. Xo'sh, biz qay darajada milliyligimizni saqlash uchun harakat qilyapmiz? Zamonaviy axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bugungi kunda media mahsulotlar bolalar hayotida muhim o'rin egallamoqda. Televizion ko'rsatuvlar, animatsion filmlar, o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot vositalari orqali bola nafaqat axborot oladi, balki ularning axloqiy-ruhiy kamolotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlarimiz asosida tayyorlangan media mahsulotlar bolalar tarbiyasida salmoqli o'rin tutadi.

Milliy media mahsulotlari – bu o'zbek xalqi madaniyati, tarixi, urf-odati, mentaliteti, axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi va o'zbek tilida yaratilgan axborot vositalaridir. Televizion ko'rsatuvlar, multfilmlar, o'yinlar, ilovalar va bolalar uchun mo'ljallangan audio kitoblar hamda podkastlarni keltirib o'tish mumkin.

Ta'lim-tarbiya jarayoni davomida bolalarga ko'proq ko'rgazmali metod asosida faoliyatni olib boramiz. Ma'lumki, 3-7 yoshgacha bo'lgan bolalarda maktabgacha bo'lgan davrni maktabgacha ta'lim tizimiga qamrab olamiz. Bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, milliyligimiz, ma'rifatimiz, ma'naviyatimiz, madaniyatimizni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini mutassil izlangan.

Internetda yangi “bolalar raqamli media madaniyati” tez sur'atlar bilan shakllanib bormoqda. Ko'plab nodavlat tashkilotlari, muzeylar, ta'lim muassasalari va davlat idoralari bolalar uchun onlayn kontent yaratishda muhim rol o'ynamoqdalar. Ular bolalarga dunyoni kashf etish, boshqa bolalar bilan jamoalar tashkil qilish va o'zlarining san'at va adabiyot asarlarini yaratish imkoniyatlarini taqdim etadi. Biroq, ko'proq reklama qilinadigan tijorat saytlar, asosan media konglomeratlari va o'yinchoq kompaniyalari tomonidan homiylik qilinadigan saytlar, ta'lim saytlarini ortda qoldirmoqda.[4] Bolalarning Internetda kashfiyotlari noto'g'ri kontentga, agressiv reklamalarga yoki hatto noma'lum shaxslar bilan xavfli aloqalarga olib kelishi mumkinligi xavfi “xavfsiz zonalar” yaratishga olib

keldi — ya'ni, bolalarni marketingchilar va xavfli odamlar ta'siridan himoya qiluvchi kiber-makondagi joylar.

Milliy media mahsulotlar bolalar ongida Milliy qahramonlar, tarixiy voqealar orqali bolalarda Vatanga bo'lgan muhabbatni oshirishi, mehr-oqibat, kattalarga hurmat, halollik, sabr-toqat kabi fazilatlarni shakllantirishi, milliy bayramlar, urf-odatlar, tarixiy shaxslar orqali madaniy meroslarga sadoqatni uyg'otishi, tilimizga xurmat ruhini shakllantirishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-apreldagi PQ-5060-son "Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida"gi[5] qarori muvofiq "O'zbekfilm" DUK negizida xususiy kinokompaniyalarga film, multfilm va seriallar yaratish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi "O'zbekfilm" kinokonserni" DUK tashkil etildi hamda hozirgi kungacha bolalar uchun mo'ljallangan milliy media mahsulotlari, xususan multfilmlar tayyorlab kelmoqda.

Bugun dunyoda ellikdan ortiq, millionlab tomoshabiniga ega animatsion studiyalar bor. Pixar, Walt Disney Animation Studios, DreamWorks Animation, Industrial Light & Magic, Studio Ghibli, Framestore, Blue Sky Studios, Warner Bros Animation, Sony Pictures Imageworks kabilarning mahsuloti O'zbekistongacha kirib kelgan. "Bolajon", "Aqlvoy" telekanallarida xorij multfilmlariga ajratilgan soatlar ham salmoqli.[6] Shu bilan birga, bolalar uchun mo'ljallangan milliy media mahsulotlarida bir necha muammolar ko'zga tashlanadi:

Birinchidan, ayrim multfilmlarda animatsiya sifati, ovozlashtirish va ssenariy darajasi yetarli emasligi.

Ikkinchidan, bolalar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, milliy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi qahramonlar obrazining kamligi.

Uchinchidan, internet va televideniya g'arbona qahramonlar va chet el animatsiyalari ustunlik qilishi, bu esa bolalarning dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

To'rtinchidan, zamonaviy animatsion texnologiyalardan foydalanish tajribasi yetarli emasligi. Ushbu muammolarni oldini olishda milliy qahramonlarni jonlantira oladigan ssenariy yozuvchi, media mahsulot tayyorlovchi soha mutaxassislarini tayyorlash, ularni tayyorlashda nafaqat davlat dasturlari, grantlari, balki keng jamoatchilikni, hayriya fonlarini ham keng jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi globallashtirish jarayonida xorijiy media mahsulotlarining oqimi nihoyatda kuchli. Bolalar orasida chet el animatsiyalariga qiziqish ortmoqda. Bunday sharoitda milliy mahsulotlar raqobatbardosh bo'lishi, texnologik va mazmuniy jihatdan jozibador bo'lishi muhim. Hozir hammaning qo'lida, yoshuqari deymizmi, XXI asrning buyuk inqilobi – internet, telefon, planshet ta'riflab tugata olmaydigan, qulayliklar ombori. Ularning biz uchun bir qancha qulayliklari va shuningdek, chalg'ituvchi omillari ham mavjud. Bu vositalarsiz bugun hayotimizni tassavur etib bo'lmaydi. Bugun eng ommalashgan ijtimoiy tarmoqlar ichida yoshlar keng foydalanadigan "Tik Tok" va "Instagram" kabi platformalar,

ijtimoiy tarmoqlar, bolalar o'ynaydigan mobil o'yinlardan tortib, ilovalargacha farzandlarimizning ertangi kun kelajagi uchun xavfli bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Milliy tarbiya faqat maktab yoki oilada emas, balki ommaviy axborot vositalari orqali ham samarali olib boriladi. Milliy filmlar, musiqalar, seriallar, multfilmlar, YouTube dasturlar yoshlar orasida ommaviylik kasb etmoqda. Bu kontentlar orqali tarbiyaviy g'oyalarni qulay, tushunarli va zamonaviy shaklda yetkazish imkoniyati kengaymoqda.

Milliy media mahsulotlari va milliy tarbiya o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi bugungi yoshlar ongini, dunyoqarashini va ma'naviy dunyosini shakllantirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Mustaqillik yillarida yaratilgan ko'plab media kontentlar milliy tarbiyaning boy merosini zamonaviy shaklda yoshlar qalbiga singdirishga xizmat qilmoqda. Bu esa O'zbekistonning kelajagi – yoshlarning sog'lom, vatanparvar, g'oyaviy immunitetga ega bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga egadir. Milliy media mahsulotlari – bu bolalarni zamon ruhiga mos, lekin o'zligiga sodiq holda tarbiyalashda eng samarali vositalardan biridir. Mustaqillik yillarida ushbu sohada olib borilgan islohotlar, yaratilgan kontentlar bugungi avlodni milliy g'urur, ezgulik, bilim va madaniyatga yo'g'rilgan shaxs sifatida voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda. Kelgusida bu mahsulotlarni sifat va mazmun jihatidan boyitish orqali tarbiya tizimiga qo'shimcha kuch bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Mirziyoyev.Sh.M Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega. 2020-yil 25-dekabrdaagi Yoshlar forumida so'zlagan nutqidan.<https://president.uz/oz/lists/view/4042>
2. Xatamboyevna, Asilova Sanobar. "Tarbiyasi qiyin o'quvchilarni kasb-hunarga yo 'naltirish masalalari". Qo'qon universiteti xabarnomasi 9 (2023): 180-183.
3. Skoczek, Anna. "The Role of the Media in Upbringing Children of Pre-school Age." Multidisciplinary Journal of School Education 6.2 (12) (2017).
4. Akramov, G'iyosiddin. "Falsafa va marginalizatsiya: falsafiy g'oyalarning marginalizatsiyani tushunishga qo 'shgan hissasi." *acta nuuz* 1.1.5. 1 (2024): 52-54.
5. Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to'g'risida. PQ-5060-son. 2021-yil 7-aprel. <https://lex.uz/docs/-5374446>
6. <https://daryo.uz/2022/01/21/2021-yilning-kattalarga-va-bolalarga-birdek-yoqadigan-eng-yaxshi-multfilmlari>